



SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Allanazarova Bibinaz Keunimjaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Maqolada rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini haqida yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *moliyaviy barqarorlik, boshqarish, sug'urta bozori, ustav kapital, Solvency II, to'lov qobiliyati.*

Аннотация. *В статье освещаются теоретические и практические аспекты управления финансовой устойчивостью страховых компаний на основе опыта развитых стран.*

Ключевые слова: *финансовая устойчивость, управление, страховой рынок, уставный капитал, Solvency II, платежеспособность.*

Annotation. *The article illuminates the theoretical and practical aspects of managing the financial stability of insurance companies, drawing upon the experiences of developed nations.*

Keywords: *financial stability, management, insurance market, authorized capital, Solvency II, solvency.*

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini boshqarish borasida yetarli darajada ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar hamda sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi davlat organlari tomonidan o'rnatilgan me'yorlar va ularning qo'llanilishiga katta e'tibor qaratilgan.

Xorijiy mamlakatlarda xalqaro sug'urta bozorining bir qismi bo'lib, ayni paytda milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xorijda sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish asosan sug'urta kompaniyalari faoliyatining moliyaviy jihatlarini nazorat qilishga qaratilgan. Xorijiy mamlakatlarda sug'urtalashning o'ziga xos xususiyatlari va jihatlarini mavjud. Har bir mamlakat o'ziga xos tarzda sug'urta siyosatini olib boradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda sug'urta iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotining xususiy kapitali ta'sischi tomonidan ustav kapitaliga badallar to'lash orqali shakllantiriladi. Faoliyat boshlanmagan va sug'urta fondlari shakllanmagan dastlabki bosqichda sug'urta tashkiloti uchun ustav kapitalini shakllantirish shartlari va miqdori muhim ahamiyatga ega. Ularning muhimligi shundaki, sug'urta tashkiloti faoliyatining birinchi bosqichida ustav kapitali sug'urtalovchining to'lov qobiliyatining yagona kafolati hisoblanadi. Keyinchalik



ham ustav kapitali katta ahamiyatga ega, chunki u kutilmagan yoki inqirozli vaziyatlarda moliyaviy resurslar manbai bo'lishi mumkin. Sug'urta tashkilotining o'z kapitali ustav, qo'shimcha, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foydadan tashkil topadi.

Ustav kapitali miqdorini tartibga solishning xalqaro amaliyoti quyidagilarga asoslanadi:

- sug'urta tashkiloti shug'ullanadigan sug'urta turlari;
- sug'urta tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmi;
- milliy va hududiy me'yoriy hujjatlar.

Sug'urta tashkilotining o'z mablag'lariga ustav kapitalidan tashqari foyda, qo'shimcha va zaxira kapitali ham kiradi. Ushbu ko'rsatkichlarni shakllantirish har bir mamlakatning milliy qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Foyda sug'urta tashkilotining daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida shakllanadi.

Sug'urta tashkilotining moliyaviy salohiyati ikki qismdan: o'z va jalb qilingan kapitaldan tashkil topadi.

I.f.d. professor I.P.Xominich o'z tadqiqot ishlarida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini tarkiban tahlil qilib quyidagilarni yozadi: "Sug'urta tashkilotining jalb qilingan kapitalining asosiy qismini sug'urta zaxiralari tashkil etadi. Sug'urta zaxiralarni shakllantirish manbai sug'urta qildiruvchilarning sug'urta mukofotlari shaklida kelib tushadigan, sug'urtalovchiga tegishli bo'lmagan mablag'laridir. Bu mablag'lar sug'urta tashkiloti ixtiyorida vaqtincha, sug'urta shartnomalari amal qiladigan davrda bo'ladi. Ushbu mablag'lar hisobidan sug'urtalovchining jamg'armasi shakllantiriladi. Bu mablag'lar sug'urta summasi doirasida to'lovlar uchun ishlatiladi yoki sug'urta shartnomasi zararsiz o'tgan taqdirda daromad bazasiga aylantiriladi. Vaqtincha bo'sh turgan sug'urta zaxiralari sug'urtalovchi tomonidan investitsiya manbai sifatida foydalanilishi mumkin va shartnoma zararsiz o'tgan taqdirda yo daromad bazasiga o'tadi, yoki shartnoma shartlarida nazarda tutilgan qismi bo'yicha sug'urta qildiruvchilarga qaytariladi"¹.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotda "barqarorlik" tushunchasi korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari rivojlanishini va uning to'lov qobiliyatini uzoq vaqt davomida saqlab qolishini ifodalaydi. Sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligi moliyaviy oqimlarga bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy tashqi va ichki ta'sirlar sharoitida ma'lum vaqt mobaynida to'lov qobiliyatini saqlab qolish qobiliyati sifatida talqin etilishi mumkin. Boshqacha aytganda, sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligi sug'urtalovchining o'z moliyaviy majburiyatlarini belgilangan talablarga muvofiq muddatida va to'liq hajmda bajarish qobiliyatini

¹ Хоминич И.П. и Дик Е.В. Мировой страховой рынок. Учебник. – М.: КНОРУС. – 2020. – 230 с.



tavsiflaydi, bunda faqat tashkilotning moliyaviy oqimlariga ta'sir ko'rsatadigan salbiy tashqi va ichki omillar hisobiga yopilishi istisno qilinadi. "Moliyaviy barqarorlik" atamasi to'lov qobiliyatining muhim ko'rsatkichidir. To'lov qobiliyati sug'urta tashkilotining ishonchliligini, uning moliyaviy barqarorligini va to'lov qobiliyatini ta'minlash imkoniyatini ifodalaydi.

Hozirgi vaqtda Yevropa regulyatori sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratmoqda, bu Yevropa Ittifoqi doirasida kapitalning erkin harakatlanishi va joylashtirilishini o'rnatish bilan bog'liq. Sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini tahlil qilish aktivlar bilan bog'liq risklarni baholash, aktuar riskni tahlil etish, aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi nisbatni o'rganish, samaradorlik va rentabellikni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

2016-yil 1-yanvardan Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ikkita asosiy talabga asoslangan Solvency II to'lov qobiliyati rejimi joriy etildi:

- 1) tizim bozor nazoratchilariga sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini va bankrotlik ehtimolini to'g'ri baholash imkonini berishi lozim;
- 2) tizim sug'urta kompaniyasiga sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan to'lov qobiliyati darajasini aniqroq hisoblashda ko'maklashishi kerak.

Solvency II doirasida sug'urta kompaniyasi kapitalining yetarliligini baholash uslubiyati riskka asoslangan kapital (Risk Based Capital, RBC) tushunchasi va Basel II Yevropa bank tartibga solish tizimiga tayanadi. Solvency II tizimida yillik VaR (Value-at-Risk) usuli va ichki modellashtirish qo'llaniladi. Bunday tizim sug'urtalovchilarga talab etiladigan kapitalning o'z darajasini (Solvency Capital Requirement, SCR) belgilash imkonini beradi.

Solvency II standartining asosiy talablari quyidagilardan iborat:

miqdoriy talablar: sug'urta kompaniyasi kapitalni shunday shakllantirishiki kerakki, kelgusi yil davomida uning bankrot bo'lish ehtimoli 1/200 (0,5%) darajasidan oshmasligi lozim;

sifat talablari: sug'urta kompaniyasi risklar va to'lov qobiliyati darajasini mustaqil baholashning ichki tizimiga (Own Risk and Solvency Assessment, ORSA) ega bo'lishi kerak.

XULOSA.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash mustahkam huquqiy baza, puxta risk boshqaruvi va kapitalning yetarli darajada shakllanishiga tayanadi. Moliyaviy barqarorlik sug'urtalovchining salbiy ichki va tashqi omillar sharoitida ham o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi.



Yevropa Ittifoqida joriy etilgan Solvency II tizimi riskka asoslangan kapital yondashuvi orqali sug'urta kompaniyalari uchun zarur bo'lgan minimal kapital hajmini aniq belgilash, tavakkalchilikni baholash va nazorat qilishning samarali mexanizmlarini ta'minlaydi. Bunday yondashuv sug'urtalovchilarning bankrotlik ehtimolini kamaytirish, to'lov qobiliyatini oshirish hamda bozor ishtirokchilari o'rtasida ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston sug'urta bozorini yanada rivojlantirish jarayonida Solvency II kabi xalqaro standartlarni moslashtirish, ustav kapitali va sug'urta zaxiralarini shakllantirish talablarini takomillashtirish, shuningdek risklarni mustaqil baholash tizimlarini joriy etish sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хоминич И.П. и Дик Е.В. Мировой страховой рынок. Учебник. – М.: КНОРУС. – 2020. – 230 с.
2. John C. Hull. Risk management and financial institutions. — Fourth Edition. Wiley finance series. -2015. – p.87.
3. Адамчук Н.Г. Мировой страховой рынок на пути к глобализации. – М.: Московский государственный институт международных отношений (Университет); «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН) 2004. – 125 стр.
4. Allanazarova B.K. Features of Risk Management and Methods of Risk Assessment in Insurance. American Journal of Economics and Business Management, - 7(11), 2024. – p.1147.